

№	MUNDARIJA	Page
1.	MILLIY SUG'URTAS BOZORINING INVESTITSIYAVIY JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI <i>Qo'ldoshev Qamariddin Mansurovich</i>	4
2.	MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA PENSIYA VA HAYOT SUG'URTASINING AHAMIYATI <i>Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi</i>	8
3.	SUG'URTA MEXANIZMLARINING IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI VA IMKONIYATLARI <i>Ko'chimov Abdujamil Hamraqulovich, To'g'izova Malika Soxib qizi</i>	11
4.	YANGI O'ZBEKISTONDA AHOLINI IJTIMOIIY HIMOYALASH BORASIDA DAVLAT TIBBIY SUG'URTASINING AHAMIYATI <i>Ametova Fotimajon Rozmatovna</i>	14
5.	O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORIDA HAYOT SUG'URTA SOHASINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI <i>Matiyazova Sanobar Rajabbayovna</i>	17
6.	TAKAFUL: ISLOMIY SUG'URTANING ZAMONAVIY IMKONIYATLARI VA RIVOJLANISH MUAMMOLARI <i>Xudoyberdiyev Umid Murodovich</i>	20
7.	GLOBAL MOLIYAVIY BEQARORLIK SHAROITIDA JAHON SUG'URTA BOZORIDAGI ASOSIY TENDENSIYALAR <i>Xalikov Umid Raxmatullaevich</i>	24
8.	SUG'URTA TASHKILOTLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI <i>Umarova Gulnora Akromovna</i>	28
9.	ISLOMIY MOLIYALASH: TAMOYLLARI, TUZILISHI VA ISTIQBOLLARI <i>Yarashova Vasila Kamalovna, Yuldashkhujayev Saidusmonkhuzha Botir ugli</i>	30
10.	BUDJET TASHKILOTLARIDA ASOSIY VOSITALARNING ESKIRISHI VA UNGA QO'YILADIGAN CHORA-TADBIRLAR <i>Ashirova Gulchehra Abdug'aniyevna</i>	33
11.	MINTAQAVIY IQTISODIYOTNING MAMLAKAT RIVOJLANISHIDAGI O'RN <i>Toshaliyeva Saodat Toxirovna</i>	36
12.	SANOAT TARMOG'INING IQTISODIY SALOHİYATINI BAHOLASHDA EKONOMETRIK USULLAR VA OMILLAR <i>Kasimov Azamat Abdukarimovich</i>	39
13.	TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING RENTABELLIGINI BAHOLASHDA EBITDA ASOSIDA BALLI REYTING TIZIMINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI <i>Abdullayev Zafarbek Safibullayevich</i>	42
14.	O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK BARQARORLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI ANIQLASH <i>Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li</i>	48
15.	KORXONALARGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISH SHAKLLARI <i>Ibragimov G'anijon G'ayratovich</i>	51
16.	YASHIL SUG'URTANI RIVOJLANTIRISHDAGI MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR <i>Yo'ldoshova Aziza Muzaffar qizi</i>	54
17.	O'ZBEKISTONDA MILLIY IQTISODIYOTNI BARQAROR O'SISH SHAROITIDA QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORINI JADAL RIVOJLANTIRISHDA ANDERRAYTING OPERATSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI <i>Alimov Ilhomjon Ikromovich</i>	57
18.	KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING DAROMADINI OSHIRISH STRATEGIYALARI <i>Sharipov Ixtiyor Baxtiyorovich</i>	60
19.	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AHOLISINI ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISH YO'LLARINI STATISTIK TAHLILI <i>Razikova Gulmira Sharifovna</i>	63
20.	O'ZBEKISTON SUG'URTA TASHKILOTLARIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI <i>Xasanov Farrux Ravshanovich</i>	65

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, falsafa fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo‘jayevich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (“O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi” AJ bosh direktori, falsafa fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, fan nomzodi, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, falsafa fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, falsafa fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash kafedrasini mudiri, dots.).
10. Quldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasini professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasini mudiri, falsafa fanlari doktori, prof.).
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasini mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasini professori, falsafa fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A‘zamjonovich (“Kafil Sug‘urta” AK sug‘urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O‘zbekiston madaniyat va san‘at instituti professori, falsafa fanlari dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Beshta tashabbus markazi kafedra mudiri, t.f.n.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU “Moliya bozori va sug‘urta” kafedrasini mudiri, falsafa fanlari doktori).
20. Mutalova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasini professori, falsafa fanlari doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasini professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU Magistratura bo‘yicha dekan o‘rinbosari, t.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasini professori v.b., falsafa fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasini professori v.b.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU “Marketing” kafedrasini dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta” kafedrasini dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo‘latovich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasini dotsenti, t.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasini dotsenti, t.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasini dotsenti, t.f.n.).



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AHOLISINI ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISH YO'LLARINI STATISTIK TAHLILI

Razikova Gulmira Sharifovna

TDIU Iqtisodiy statistika kafedrasida katta oqituvchi
gulmirarazikova2022@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.55439/INS/vol2_iss2/280

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida aholini ish bilan band qilish holati, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari statistik tahlil asosida yoritilgan. Aholining iqtisodiy faol qatlamini kengaytirish, mehnat bozorida muammolarni hal qilish, yangi ish o'rinlarini yaratish orqali bandlik darajasini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqotda rasmiy statistik ma'lumotlar tahlil qilinib, so'nggi yillardagi mehnat bozori dinamikasi hamda mavjud muammolar chuqur o'rganilgan. Shuningdek, bandlik darajasini yanada oshirishga xizmat qiluvchi asosiy yo'nalishlar bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Bandlik, mehnat bozori, ishsizlik, iqtisodiy faol aholi, yangi ish o'rinlari, demografik omillar, statistik tahlil, rasmiy bandlik.

Abstract: This article discusses the employment situation in the Republic of Uzbekistan, existing problems and ways to overcome them based on statistical analysis. Particular attention is paid to the issues of expanding the economically active population, solving problems in the labor market, and increasing the employment rate by creating new jobs. The study analyzed official statistical data, deeply studied the dynamics of the labor market in recent years and existing problems. Also, proposals and recommendations were developed on the main directions that serve to further increase the employment rate.

Keywords: Employment, labor market, unemployment, economically active population, new jobs, demographic factors, statistical analysis, official employment.

Абстрактный: В статье рассматривается ситуация с занятостью в Республике Узбекистан, существующие проблемы и пути их преодоления на основе статистического анализа. Особое внимание уделяется расширению численности экономически активного населения, решению проблем на рынке труда и повышению уровня занятости путем создания новых рабочих мест. В ходе исследования были проанализированы официальные статистические данные, а также глубоко изучена динамика рынка труда за последние годы и существующие проблемы. Разработаны также предложения и рекомендации по ключевым направлениям, которые будут способствовать дальнейшему повышению уровня занятости.

Ключевые слова: Занятость, рынок труда, безработица, экономически активное население, новые рабочие места, демографические факторы, статистический анализ, формальная занятость.

Kirish (Введение/ Introduction)

Bugungi globallashuv jarayonida har bir davlat iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri sifatida aholi bandligini ta'minlash va mehnat bozorini samarali boshqarishni o'z oldiga asosiy vazifa qilib qo'yimoqda. Aholini ish bilan band qilish masalasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, aholining turmush darajasi va farovonligini oshirishda hal qiluvchi omil sanaladi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi uchun bandlik masalasi dolzarb hisoblanib, bu yo'nalishda so'nggi yillarda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda... [1]

Mamlakatda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, xizmatlar sohasini kengaytirish orqali bandlik darajasini oshirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shunga qaramay, mavjud resurslar imkoniyatlarini to'liq ishga solish, mehnat resurslarini samarali yo'naltirish va ishsizlik darajasini kamaytirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Aholi sonining ortib borishi, mehnat resurslarining ko'payishi bilan birga ishsizlik darajasini kamaytirish va barqaror bandlikni ta'minlash iqtisodiy rivojlanishning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida aholi bandligini ta'minlash yo'llari va imkoniyatlari chuqur tahlil qilinib, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi so'nggi yillardagi statistik ko'rsatkichlar asosida mamlakatdagi bandlik holatini o'rganish hamda istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilashdan iborat. [2]

Adabiyotlar sharhi (Обзор литературы/Literature review)

Tadqiqot jarayonida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi hisobotlari, Mehnat kodeksi, Jahon banki hamda Xalqaro

mehnat tashkiloti (ILO) ma'lumotlari asosiy manba sifatida o'rganildi. Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda mehnat bozori tizimida so'nggi yillarda tub o'zgarishlar sodir bo'lib, bandlik masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Statistik tahlil metodlaridan foydalanilib, so'nggi besh yildagi iqtisodiy faol aholi, ishsizlar soni, mehnat resurslari dinamikasi tahlil qilindi. Dinamik qatorlar, grafik usullar hamda strukturaviy tahlil asosida mehnat bozorining asosiy ko'rsatkichlari o'rganildi. Tadqiqotda aynan pandemiya yillarida yuzaga kelgan mehnat bozori muammolariga ham alohida e'tibor qaratildi. Shuningdek, sohalar kesimida yangi yaratilgan ish o'rinlari tahlil etilib, bandlik darajasiga eng katta ta'sir ko'rsatgan sohalar aniqlab chiqildi. [3]

Adabiyotlar tahlili davomida aniqlanishicha, hozirgi kunda mamlakatda ishsizlikning asosiy sabablari qatorida yangi ish o'rinlarining yetarli darajada yaratilmasligi, mavjud mehnat resurslarining to'liq band etilmasligi, yoshlar va xotin-qizlar bandligi muammolari yetakchi o'rinni egallaydi. Shu bilan birga, iqtisodiy faol aholi tarkibining doimiy ortib borishi, demografik bosimning kuchayishi ham mehnat bozorida muammolarni keltirib chiqarmoqda. [4]

Tahlil va natijalar muhokamasi (Анализ и результаты/Analysis and results)

O'zbekiston Respublikasida aholi bandligi so'nggi yillarda doimiy ravishda yaxshilanib bormoqda. Quyidagi jadvalda 2019-2023 yillar davomida mehnat bozorining asosiy ko'rsatkichlari keltirilgan.

Ushbu jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, 2019-2020 yillar oralig'ida pandemiya omillari natijasida ishsizlik darajasi ortgan. Lekin 2021 yildan boshlab iqtisodiy o'sish sur'atlarining tiklanishi natijasida ishsizlik

darajasi pasaya boshladi va 2023 yilga kelib 7,6 foizga tushgan. Bu esa olib borilayotgan islohotlar samarasini ko'rsatib turibdi.

1-jadval
2019-2023 yillarda O'zbekiston Respublikasida ishsizlik darajasi dinamikasi⁴

Yillar	Mehnat resurslari (mln)	Iqtisodiy faol aholi (mln)	Ishsizlar soni (ming)	Ishsizlik darajasi (%)
2019	19,0	14,3	1510	9,0
2020	19,3	14,6	1610	9,5
2021	19,7	15,0	1430	8,7
2022	20,1	15,4	1320	8,3
2023	20,5	15,9	1210	7,6

Statistik tahlil natijasida aniqlanishicha, ayniqsa xizmat ko'rsatish sohasida eng ko'p yangi ish o'rinlari yaratilgan bo'lib, bu umumiy yangi ish o'rinlarining 28,8 foizini tashkil etgan. Sanoat va qishloq xo'jaligi ham yetarli miqdorda yangi ish o'rinlari yaratishda muhim o'rin tutgan.

2-jadval
2023 yilda sohalarda bo'yicha yaratilgan yangi ish o'rinlari⁵

Sohalar	Yaratilgan yangi ish o'rinlari (ming)
Qishloq xo'jaligi	120
Sanoat	95
Qurilish	80
Xizmatlar sohasi	150
Axborot texnologiyalari (IT)	30
Ta'lim va sog'liqni saqlash	45
Jami	520

Ishchi kuchiga talab va aholi bandligini oshirishni qo'llab-quvvatlash dasturi maqsadi ko'ngildagidek bo'lmagan holatlarda ishchi kuchiga talabni qo'llab-quvvatlash hisoblanadi. Ular ishsizlarga vaqtinchalik ishga joylashish va katta bo'lmagan ishlab chiqarish ish staji taklif etadi. Bu esa ularning ochiq mehnat bozorida ish izlashlarini osonlashtiradi yoki biror-bir kasbiy ta'limni tanlashiga asos qo'yadi. Bunday dasturlar, jumladan, yakka tartibda subsidiyalari berish dasturi, o'z ishini boshlash uchun subsidiya berish dasturi, 20 yoshdagi yoshlar uchun tuman dasturlari, kompyuter ustaxonalari va markazlarini, katta yoshlilar uchun vaqtinchalik ish joy yaratish dasturlari, resursli ishlar bo'yicha dasturlar. Shvetsiyada imkoniyati chegaralangan insonlarni qo'llab-quvvatlash dasturlari keng tarqalgan. Ushbu dasturlarda nogironlar uchun tadbirlar va ish beruvchilarning ishlash qobiliyati chegaralangan insonlar uchun ish joyi sharoitlarini yaratish bilan bog'liq. [5]

Finlandiya va Niderlandiyada mehnat sohasida ayollar huquqi buzilishi uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Umuman aytganda, skandinaviyada mamalakatlarda bandlikning yuqori darajasi va tug'ilishning normal darajasini birgalikda olib borishga erishilgan. Shvetsiyaning amalda bo'lgan "Mehnat sohasida erkaklar va ayollarning teng imkoniyatlari to'g'risida"gi qonunida (1991 yil) ish beruvchilarning ishchi o'rinlari erkaklar va ayollar o'rtasida teng taqsimlanishini ta'minlash majburiyati nazarda tutiladi. Bu esa ishlovchi erkaklar va ayollar nisbati bir xilda bo'lmagan korxonalarda ish beruvchi mazkur korxonada vakilligi yetarli darajada bo'lmagan jinsdagi shaxslarni qo'shimcha ravishda ishga qabul qilishi shart ekanligini ifodalaydi. Ushbu model amalda jami ish kuchi uchun davlat sektorida o'rta, qoniqarli ish haqi va mehnat sharoitiga ega ish o'rinlari yaratishga mo'ljallangan.

Mazkur siyosatni salbiy jihati uni faqat davlat moliyaviy mablag'lari hisobiga amalga oshirilishi, ammo mablag'larning esa chegaralanganligi yoki kamayishi ishlab chiqarish pasayishi va ish o'rinlarining keskin

qisqarishiga olib keladi. 3. Kontinental yoki yevropa modeli ham shved modeli kabi, mehnat qilayotgan aholining ish bilan bandlar sonini ish unumdorligi oshishi va daromadi o'sishi vaqtida qisqartirishga asoslangan. Shuning uchun bandlik va ishsizlik masalalariga birinchi navbatda e'tibor berilmoqda. Buning sababi davlatning mehnat bozori ahvoli va ijtimoiy-siyosiy xarakterdagi sabablar bo'yicha mas'uliyatini anglashi, ayniqsa, mahalliy ishchilar uchun raqobatni yaratadigan ko'plab mehnat muhojirlari mavjudligidir. [6]Fransiyadagi ushbu hodisani tartibga solish, xususan, "Yangi xizmatlar - yangi ish o'rinlari" dasturini amalga oshirishga qaratilgan. Boshqa tadbirlar qatorida davlat yoshlarga yangi ish joylarini yaratish uchun korxonalar xarajatlarining 80 foizigacha qoplanishini ta'minlaydi. Fransiya aholi bandligi siyosatini amalga oshirish tizimi ham diqqatga sazovordir. Ish bilan bandlik masalalari nafaqat davlat va mintaqaviy, balki tarmoq darajada ham ko'rib chiqiladi[7]. Germaniya (yoki neoliberal) ish bilan bandlik modeli faol ish bilan bandlik siyosatiga asoslanadi - davlat yangi ish joylari yaratadigan barcha ishlab chiqaruvchilarni (ish beruvchilarni) rag'batlantiradi, shuningdek, korxonalarni modernizatsiya qilishda bandlikning mavjud darajasini saqlab turadi, ishchilarni ommaviy ishdan bo'shatishdan qochgan korxonalarga imtiyozlar beradi. Bunday siyosat oshib borayotgan ishsizlar soni uchun qimmatga tushuvchi nafaqa tizimini yaratishni talab etadi. [8]

Shu bilan birga, mehnat migratsiyasi, norasmiy bandlik, ayollar va yoshlar bandligi bilan bog'liq muammolar mavjudligini saqlab qolmoqda. Hududiy jihatdan qaralganda, qishloq joylarda ishsizlik darajasi shaharlarga nisbatan yuqori bo'lib qolayotgani kuzatilmoqda.

Xulosa va takliflar (Заключение/Conclusion)

O'zbekiston Respublikasida aholi bandligini ta'minlash va ishsizlik darajasini kamaytirish borasida sezilarli yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, ushbu yo'nalishda hali qilinishi lozim bo'lgan muhim vazifalar mavjud. Mehnat bozorining doimiy monitoringi va tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, ishsizlik darajasini kamaytirish bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar o'z samarasini ko'rsatmoqda. Biroq, ishsizlik ayniqsa yoshlar, ayollar va qishloq aholisi o'rtasida yuqori darajada qolmoqda.

Bandlik darajasini yanada oshirish uchun quyidagi yo'nalishlarda faol ish olib borish zarur:

Hududlarda, ayniqsa qishloq joylarda ishlab chiqarish korxonalari va xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirish;

Kasb-hunar va malaka oshirish markazlari faoliyatini kengaytirish, zamonaviy kasblarni o'rgatish tizimini yo'lga qo'yish;

Innovatsion sohalarni, xususan axborot texnologiyalari va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish;

Ayollar bandligini ta'minlashga qaratilgan alohida dasturlar ishlab chiqish;

Yashirin bandlikni aniqlash va rasmiy mehnat bozoriga jalb etish bo'yicha tizimli ishlarni kuchaytirish;

Yoshlarni mehnat bozoriga samarali integratsiya qilish uchun dasturlar ishlab chiqish va qo'llab-quvvatlash.

Umuman olganda, aholi bandligini ta'minlash O'zbekiston iqtisodiy barqarorligi, ijtimoiy muvozanat va aholining farovon turmush darajasiga erishishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu bois, bandlik masalasi har doim davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литература/ References):

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy hisobotlari. (www.stat.uz)
2. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2023.
3. Jahon banki hisobotlari, 2023 yil.
4. Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO) ma'lumotlari. (www.ilo.org)
5. "O'zbekiston mehnat bozori: tahlil va rivojlanish istiqbollari" ilmiy to'plam. – Toshkent, 2022.
6. Internet manbalari, so'nggi tahliliy sharhlar va statistik hisobotlar.
7. Jahon Banki. (2022). O'zbekistonda ish bilan bandlik: tendensiyalar va muammolar.
8. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi. (2021). O'zbekistonda mehnat bozori dinamikasi.